

# TOSHKENT VILOYATI MAHALLIY BUDJETI DAROMADLARI O'ZGARISHLARINING AMALDAGI HOLATI TAHLILI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11398575>

**Akbarova Nilufar Ne'matjanovna**

*Andijon Iqtisodiyot va qurilish instituti*

*“Buhgalteriya xisobi va bank ishi”*

*kafedrası asıssenti*

**Annotasiya:** *Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida budjet masalasi juda muhim va murakkab masala bo'lib hisoblanadi. Har bir hududning rivoji, aholisining turmush sharoiti, ijtimoiy himoya, kam ta'minlangan oila va shaxslarni yetarli darajada ijtimoiy himoya qilish, har bir hududdagi davlat hokimiyati organlarining moliyaviy masalalarini to'g'ri hal qila bilishga bog'liqdir. Bunda mahalliy budjetlarga tushadigan soliq va yig'implarning turi, miqdorini belgilash alohida ahamiyat kasb etadi. Respublikamiz soliq tizimini takomillashtirishda turli hokimiyat organlarining soliqlar va yig'implar bo'yicha vakolatlarini yanada aniqlashtirish va bunda mahalliy davlat hokimiyati idoralarining bu boradagi vakolatlarini oshirish muhim yo'nalish qilib belgilanishi lozim.*

**Kalit so'zlar:** *Foyda solig'i, dividend, soliqsiz daromadlar, soliq rejimi, soliq stavkalari, soliq turlari, “Budjet kodeksi”, budjetlararo transfertlarni, prognoz, deklaratsiya, mahalliy budjet.*

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida budjet masalasi juda muhim va murakkab masala bo'lib hisoblanadi. Har bir hududning rivoji, aholisining turmush sharoiti, ijtimoiy himoya, kam ta'minlangan oila va shaxslarni yetarli darajada ijtimoiy himoya qilish, har bir hududdagi davlat hokimiyati organlarining moliyaviy masalalarini to'g'ri hal qila bilishga bog'liqdir. Bunda mahalliy budjetlarga tushadigan soliq va yig'implarning turi, miqdorini belgilash alohida ahamiyat kasb etadi. Respublikamiz soliq tizimini takomillashtirishda turli hokimiyat organlarining soliqlar va yig'implar bo'yicha vakolatlarini yanada aniqlashtirish va bunda mahalliy

davlat hokimiyati idoralarining bu boradagi vakolatlarini oshirish muhim yo‘nalish qilib belgilanishi lozim.

Hozirgi kunda davlat tomonidan mamlakat hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tartibga solishning samarali mexanizmini shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Hududlardagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik Respublika iqtisodiyotining yetakchi tarmog‘i bo‘lib, mamlakat yalpi ichki mahsulotining 57 foizi, eksport hajmining 27 foizi va mehnatga band bo‘lganlarning 76 foizi to‘g‘ri keladi<sup>36</sup>. Ammo, tadbirkorlik sub‘ektlari rivojlanishida hududlar salohiyatidan yetarli darajada foydalanilmayotganligi, mahalliy budjet daromadlarining barqarorligi ta‘minlanmaganligi shuningdek, hududlarda daromad bazalarining iqtisodiy tahlilidagi kamchiliklar daromadlarini hududlar kesimida o‘rganishni taqozo etadi.

Mahalliy budjetlarning eng birinchi daromad manbai bo‘lib mahalliy soliqlar va yig‘imlar xizmat qiladi. Bu daromad turlari qonunchilikka asosan mahalliy budjetlarga to‘liq birlashtirilgan daromad manbai xisoblanadi. (1-jadval)

**1-jadval**

**Toshkent viloyatining mahalliy budjeti daromadlarini 2023 yil  
ko‘rsatkichlari tahlili**

**ming.so‘m**

<b>№</b>	<b>Daromad turlari</b>	<b>Jami</b>
<b>JAMI</b>		<b>2 718 215 282,0</b>
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	205 991 204,0
2	Korxonalarining aylanmasidan soliq	156 709 894,0
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	752 258 738,0
4	Aksiz solig‘i,jami	260 905 292,0

<sup>36</sup> O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari, 2022 y.

	<i>Shu jumladan:</i>	
	<i>-yakuniy istemolchilarga benzin,dizel yoqilg‘isi va gazni realizatsiya qilishdanaksiz solig‘i</i>	260 905 292,0
5	qurilish materiallari bo‘yicha yer qaridan foydalanganlik uchun soliq	59 089 000,0
6	Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	235 688 081,0
7	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	302 137 770,0
8	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	107 804 629,0
9	Davlat bojlari	176 092 022,0
10	Jarimalar	178 198 532,0
11	Davlat tashkilotlarining sof foydasidan daromad	36 790 000,0
12	Yig‘imlar	135 997 000,0
13	Davlat aktivlarini joylashtirish va sotish (xususiy lashtirish)dan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar	100 000 000,0
14	Boshqalar	10 553 120,0

2022 yildagi ma’lumotlarga ko‘ra Toshkent viloyati mahalliy budjeti respublika budjetidan transfert ajratilmagan uch regiondan biri bo‘lgani holda uning daromadlari 2,7 trln so‘mdan ortiqni tashkil etgan. Daromadning eng salmoqli qismi, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i hisobiga shakllangan – 27,6 ko‘proq, keyingi o‘rinda yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i – 11,1 foiz, aksiz solig‘i – 9,6 foizdan iborat.

**Toshkent viloyati bo'yicha mahalliy budjet daromadlarining tuman va shaharlar miqyosida 2023 yil ijrosi to'g'risida ma'lumot**

<b>№</b>	<b>Tuman va shaharlar nomi</b>	<b>Reja mlrd.so'm</b>	<b>Ijro mlrd.so'm</b>	<b>Farqi, mlrd.so'mda</b>	<b>Ijro, %</b>
<b>Toshkent viloyati, jami</b>					
<b>1.</b>	<b>Viloyat budjeti</b>	<b>593 591</b>	<b>658 862</b>	<b>65 270</b>	<b>111</b>
<b>2.</b>	<b>Tumanlar va shaharlar budjeti, jami</b>	<b>223 225</b>	<b>259 348</b>	<b>36 120</b>	<b>116</b>
2.1.	Olmaliq shahar	14 885	18 721	3 835	126
2.2.	Angren shahar	14 568	15 632	1 064	107
2.3.	Ohangaron shahar	7 312	9 273	1 961	127
2.4.	Bekobod shahar	8 302	9 336	1 035	112
2.5.	Chirchiq shahar	12 752	14 901	2 149	117
2.6.	Yangiyo'l shahar	8 197	9 207	1 010	112
2.7.	Ohangaron tumani	5 794	7 099	1 305	123
2.8.	Bekobod tumani	11 266	12 705	1 439	113
2.9.	Oqqo'rg'on tumani	8 671	9 719	1 048	112
2.10.	Bo'stonliq tumani	11 036	12 388	1 352	112
2.11.	Bo'ka tumani	10 559	12 405	1 846	117
2.12.	Yuqorichirchiq tumani	8 022	9 346	1 324	117
2.13.	Quyichirchiq tumani	9 774	12 404	2 630	127
2.14.	Zangiota tumani	15 928	18 932	3 004	119
2.15.	Qibray tumani	14 932	16 178	1 245	108

2.16.	Parkent tumani	9 424	11 369	1 945	121
2.17.	Piskent tumani	13 914	13 242	-672	95
2.18.	O'rtachirchiq tumani	6 509	7 758	1 248	119
2.19.	Toshkent tumani	11 711	13 986	2 275	119
2.20.	Chinoz tumani	11 076	14 360	3 283	130
2.21.	Yangiyo'l tumani	8 593	10 387	1 794	121

2-jadval ma'lumotlari ko'rsatishicha, 2022 yilda viloyat budjeti daromadlari 112 foizga bajarilgan bo'lib, viloyatning o'z budjeti 111 foizga, viloyatga bo'ysunuvchi tumanlar va shaharlar budjetlari esa 116 foizga ijro etilgan. Tumanlar budjetlaridan faqat Piskent tumanida budjet daromadlari prognozlarini bajarilmagan

Mamlakatimizda budjet daromadlari o'zlarining manbalari, ijtimoiy-iqtisodiy xarakteri, mulkchilik shakli, soliq va to'lovlarning turi, mablag'larning tushish shakli, ularni budjetga undirish metodlari vahokazolarga muvofiq klassifikatsiya qilinishi mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.

2. O'zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.10.2021-y., 03/21/726/1001-son.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 09 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasining 2020-2022 yillarga mo'ljallangan Investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4563-sonli Qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 18.08.2020-y., 06/20/6042/1190-son.

4. O'zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.10.2021-y., 03/21/726/1001-son.